

## **INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at  
Samarkand State Architecture and Construction University*

### **METHODS OF USING GREEN FENCES, CURBES, BASKETS AND ARBORETUMS IN LANDSCAPE ARCHITECTURE AND ITS ROLE IN MODERN ARCHITECTURE**

Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering, professor  
**MakhmatkulovTurdimurod**

Ph.D, Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering,  
Doctor of Philosophy in Architecture , docent  
**Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich**

**Annotatsiya:** Maqolada landshaft arxitekturasini obyektlarini ko'kalamzorlashtirish alpinariya, yashil to'siqlar, bordyurlar, bosketlar va dendrariylar haqida ma'lumot berilgan bo'lib, landshaft arxitekturasini obyektining qurilishi va ulardan foydalanish loyihaviy hujjatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yashil to'siq, dekorativ, yo'lak, o'simliklar arxitekturasini, bog'-park, klumba, gulzor, to'shama, yoritgich.


Arxitektura, shaharsozlik va landshaft arxitekturasini o'zaro uzviy aloqada bo'lib, bir-biridan muhitni shakllantirishda qo'llaniladigan materiallari va vositalari bilangina farq qiladi. Har uchala soha ham kishilik jamiyatining rivojlanish tarixida umumiy bir yo'nalish va maqsadlar uchun xizmat qilgan. Landshaft arxitekturasini ham arxitektura va shaharsozlik kabi barcha tarixiy ijtimoiy bosqichlarda jamiyat ehtiyojlarini qondirib kelgan va o'z davrining badiiy madaniy va umuminsoniy yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Landshaft arxitekturasini va uning muhim tarmog'i hisoblangan bog'-parkchilik san'atining o'ziga xos yorqin xususiyati-bu ularni yaratishda qo'llaniladigan tabiiy "qurilish materiallari"dir. Bular safiga eng avvalo o'simliklar dunyosi, suv dunyosi, yer, toshlar va umuman joy rel'efining barcha xususiyatlari kiradi. Aynan shu materiallar ochiq fazoviy muhitni shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi.

Landshaft arxitekturasini-bu kishilik jamiyatiga xos badiiy va umummadaniy merosning cheksiz va behad keng sohasidir.

Yashil to'siqlarni asosan turli butalardan va ba'zi holatlarda past bo'yli daraxtlardan yaratishadi. Shuningdek, dekorativ baland bo'yli o'simliklardan ham foydalanish mumkin.

**Yashil to'siqlar** bir vaqtning o'zida maxsus bezatilishi va boshqa o'simliklar uchun dekorativ fon vazifalarini o'tashi mumkin. Bu vazifalari bilan yashil to'siqlar landshaft arxitekturasini obyektini hududlarida chiroyli ko'rinishlar yaratilishi uchun yordam beribgina qolmay, tashrif buyuruvchilar nigohidan ba'zi bir ko'rimsiz joylarni yashirishi ham mumkin. Bundan tashqari, yashil to'siqlarni yo'l va yo'laklar yo'nalishi bo'yicha joylashtirib, obodonlashtirish to'sig'ini yaratish ham mumkin(1-rasm).



**1-rasm. Yashil to'siqlarni shakllantirish sxemasi;**

*I-yaxlit bargli o'simliklarga shakl berilishi; a-ekilgandan keyin mayda shakl berish; b-bir yillik o'simliklarga birinchi shakl berilishi; v- ikkinchi yil ushbu o'simliklarga ikkinchi shakl berilishi; g-uchunchi yil talab qilingan shaklga keltirish; II- o'simliklarni talab qilingan shaklga keltirish.*

Bog'dorchilik san'atining daraxt va butalarga shakl berish usuli Qadimgi Rim davlatida paydo bo'lib, san'at darajasiga o'sib etishdi va hozirgi kungacha daraxt va butalarga shakl berilish amaliyotda qo'llanib kelinmoqda.

O'simliklardan yaratilgan asarlarning o'ziga yarasha atamallari ("yashil haykallar", "o'simliklar arxitekturas") mavjud bo'lib, Rimliklar uchun o'z bog'larini san'at darajasiga ko'tarib, maqtanish urf bo'lgan. Hozirgi kunda Yevropa tarixiy parklarida, asosan Angliya va Gollandiyada daraxt va butalarga shakl berish an'anasi davom etmoqda(2-rasm).




**2-rasm. Gollandiya qal'alari xududidagi bog'-park o'simliklar arxitekturas.**

XVIII asrlarda golland bog'larida (lipa, tis va buk) daraxtlariga shu darajada shakl berishganki, ularning daraxtligi ham bilinmay qolgan. Hozirgi kunda daraxt va butalarga asosan: shar, kub, konus va boshqa shakllar berish urf bo'lgan (4.12.-rasm).

Bog'-park hududlarida qo'llaniladigan daraxt va butalar shakllariga quyidagicha tasnif berish mumkin: baland yashil devorlar, yashil to'siqlar, bordyurlar va alohida shakl berilgan daraxt va butalar.

**Bordyurlar** deganda, bu (fransuzcha soʻz) biz, odatda beton, tosh, bordyurlarini yoʻlak yoki yoʻl chetlarini chegaralovchi toʻgʻri chiziqli, ingichka, pastqam shakllarni tushunamiz. Biroq, bordyurlar oʻsimliklardan ham yaratilishi mumkin. Ular partyerlar, klumbalar, gazonlar, favvoralar chetlarini bezovchi, odatda bir-ikki qator qilib, balandligi 30-40 sm dan oshmagan, gullovchi butalar yoki oʻtli oʻsimliklardan qator qilib ekilgan, yashil kompozitsiyalardir. Eni 10-50 sm dan oshmagan bordyurlar ramka yoki hoshiya deb ham ataladi. Ular partyer turidagi gulzorlar chetini hoshiya tarzida ajratib turuvchi koʻzalgan shamshoddan ishlangan yashil shakllardir(3-rasm).



3-rasm. Yashil bordyurlarning ekilish usullari

**Miksbordyerlar**–aralash bordyur yoki aralash shakl berilgan kompozitsiyalardir. Miksbordyerlar tarxi, yaʼni mumtoz koʻrinishi bu eni 2 m dan 4 m gacha shakli choʻzinchoq boʻlgan klumbadir. Unda oʻsimliklar yarussimon shaklda joylashishadi: oldingi, yaʼni birinchi yarusda balandligi 30 sm gacha boʻlgan oʻsimliklar ekilsa, oʻrta yarusga 40 sm dan 70 sm gacha, orqa yarusga esa balandligi 80 sm dan 120-150 sm gacha boʻlgan oʻsimliklar ekiladi. Birinchi yarusi odamlar yuradigan va miksbordyerlarga nigoh tashlaydigan tomonda boʻlishi, qolgan yaruslar boʻyi birin-ketin oʻsib borishi kerak.

Keyingi vaqtlarda miksbordyerlarga yerkin tabiiy shakl berila boshlandi. Ayniqsa, ular toʻgʻri handasaviy yashil shakllardan holi boʻlishgach, yanada yerkin koʻrinishlar ola boshladi. Miksbordyerlarni odatda guruhlar yoki maysazor ichidagi "guldor bog" lar tarzida, trapetsiya, assimetrik uchburchak, stillashtirilgan kvadratlar, toʻgʻri burchaklar yoki ovalar shaklida ekishadi.

Miksbordyerlarga ikkita asosiy talab qoʻyiladi:

- hamma tomondan yaxshi koʻrinib turish;
- oʻz jozibadorligini va manzaraviyligini iloji boricha uzoq vaqt saqlashi kerak.

Miksbordyerlarga oʻsimliklarni toʻgʻri tanlash, yaʼni ularning gullash davri, shakli, ayniqsa barglari va gullarining shakli, rangi va oʻlchamlariga qarab tanlash orqali yerishiladi. Miksbordyerlarga ekish uchun bir va koʻp yillik oʻsimliklar hamda ayrim xona oʻsimliklari (masalan: balzamin, uolliera, xlorofitun xoxlatyuy, setkreozit purpurnaya, agava amyerikanskaya, begoniya vechnessvetushaya, koleus gibridniy, pelargoniya plyushelistnaya, fuksiya izyashnaya) qoʻllash mumkin.

Miksbordyerlardan tuzilgan gulzorlarni suv havzalari yoniga, uyga va binolarning kirish joyiga, dam olish maydonchalari oldiga joylashtirish mumkin. Odatda, ular qirqilgan yoki yerkin oʻsuvchi maysazorlar, izgorodlar, tabiiy toshlar yoki gʻishtlardan tyerilgan tirkak devorlar foniga ekilsa, koʻproq estetik koʻrinishga ega boʻladi. Miksbordyerlar ayniqsa, maysazorlarda daraxtlar guruhi fonida ekilsa yaxshi kompozitsiya aksenti ham boʻlishi mumkin(4-rasm).



**4-rasm. Miksbordyerlardan tuzilgan gulzorlar. Amaliyotdan misol.**

**Bosketlar** tomonlari tig'iz o'sgan, tartibli qirtishlangan, daraxt va butalardan shakllantirilgan, devor bilan chegaralangan xandasaviy chiziqli, atrof-muhitdan holi, yopiq yashil fazoviy muhitni tashkil etadi. Bosketlar ichida pavilyonlar, favvoralar, suv havzalari va haykallar joylashishi mumkin. Bosketlar, odatda, me'moriy bog' ansambli kompozitsiyasining asosiy ochiq qismlariga va xiyobonlarga yondoshgan bo'ladi. Ayrim hollarda bosket qurilmalari uchun trelyajdan foydalanilgan bo'ladi.

Bosketlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

- yopiq bosketlar, butkul qirqilgan yashil devorlardan shakllanib, ularning ichki muhiti ko'rinishiga sun'iy shakl berilgan daraxt va butalar joylashtiriladi va bunday muhit, odatda texnik yoki xo'jalik ehtiyojlariga mo'ljallanadi;
- pyerimetral tuzilgan yashil devorlardan ishlangan bosketlar, ular ichida daraxtlar joylashib, kirish joyi manzaraviy darvozalar yoki ravoqlar bilan bezatiladi. Bunday bosketlar tinch dam olish, holilashgan tarzda vaqt o'tqazish, labirint ichida sayr qilish kabi maqsadlarga mo'ljallanadi.

Bosketlarni shakllantirishda mayda bargli (lipa, tikanli archa, sariq akatsiya, oddiy barbaris, ko'kimtir jimolost, turli xil boyarishniklar, yaltiroq kizilnik, tatar klyoni, tillarang smorodina) daraxtlardan foydalanish mumkin(5-rasm).



**5-rasm. Daraxt va butalardan shakllantirilgan bosketlar.**

**Dendrariy**—botanik bog‘lar yoki pitomniklar, alohida ko‘kalamzorlashtirilgan ob‘yekt yoki turli xil o‘simliklar kolleksiyasi, alohida shakllantirilgan hudud. Bunday hudud, ya‘ni dendrariy turli xildagi daraxt va butalarni Respublikamiz iqlim-geografik sharoitlariga moslashtirish, o‘stirish va ko‘paytirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun mo‘ljallanadi. Dendrariylar o‘simliklarning geografik, sistematik, biologik yoki ekologik belgilariga ko‘ra tashkil qilinadi, ayrim hollarda dendariylar hududiy tarkibiga sayrgoh, yo‘l-yo‘laklar va xiyobonlar ham kiritiladi(6-rasm).



## 6-rasm. Sochidagi dendrariy.

Shaharsozlikning biron-bir arxitekturaviy ob'yekti tabiatdan, landshaftdan ajralgan holda mavjud emas. Xulosa qilib aytganda, har bir talaba kelajakda qaysi soha bo'yicha ishlashidan qat'iy nazar (loyihalashdami, ilmiy tashkilotdami, boshqarish tizimidami yoki pedagogik faoliyatidami) o'zining landshaft sohasi bo'yicha bilim darajasini oshirishi kerak.

Landshaft arxitekturasining umumiy vazifalari quyidagicha:

- vazifalariga qarab ochiq havoda odam hayotiy jarayonlari kechadigan fazoviy muhitni tashkillashtirish, tabiiy xususiyatlarini himoyalab qayta tashkillashtirish, obodonlashtirish, tashqi ashyolarning estetik ko'rinishlarini yaxshilash.

Arxitekturaviy landshaft vazifalarini tartibga solish uchun, birinchidan ularning bosqichma-bosqichligini, bir-biriga bo'ysunishini aniqlab, keyinchalik bu vazifalarning qonun-qoidalarini aniqlanishini va ularni yechish usullarini aniqlash uchun obyektlarni ilmiy asoslangan tipologiyasini bilishimiz zarurdir. Tipologiya –bu biror bir obyektlarni sinflarga bo'libgina qolmay, ularning ilmiy usuli tushunchasini, ob'ektlarning qonuniy ravishda rivojlanishini va yangi turlarining paydo bo'lishini o'rgatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Teodoronskiy V.S., Sabo E.D., Frolova V.A. Stroitel'stvo i ekspluatatsiya ob'yektov landshaftnoy arxitektury.- Moskva, 2008.
2. Zalesskaya L.S., Mikulina E.M. Landshaftnaya arxitektura.- Moskva,1979.
3. Ojegov S.S., Uralov A.S., Raximov K.D. Landshaft arxitekturasini va dizayni.-Samarqand, 2004.
4. Mahmatqulov, I., & Mavlonov, M. (2023). TURAR-JOYLARNI ME'MORIY-LANDSHAFT TASHKILLASHTIRISH VA LOYIHALASHNING ZAMONAVIY AN'ANALARINI TASHKILLASHTIRISHNING ILG'OR AN'ANALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 5), 27-31.
5. Maxmatqulov, I. T., & O'G'Li, F. U. B. (2022). Ko'p tarmoqli sport majmualarini arxitekturaviy loyihaviy yechimlarini zamonaviy shakllari. *Science and Education*, 3(4), 361-363.
6. MAHMATQULOV, I., & ISMOILOV, B. (2023). LANDSHAFT ARXITEKTURASIDA TIRGAK DEVORLAR, ZINALAR, PANDUSLAR VA QIYALIKLARNI QO'LLANILISHI USULLARI. *Journal of Research and Innovation*, 1(7), 13-18.
7. Turdimurodovich, M. I., ShamshidinYalgashevich, K., & Kuchkarovich, N. B. (2023). INNOVATIVE SOLUTIONS FOR ORGANIZING THE CONSTRUCTION OF MULTIFUNCTIONAL SPORTS FACILITIES. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 37-41.